

## Ózbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi Qonuning yurtimizda yoshlar masalasining huquqiy bazasin mustahkamlashdagi róli

**Sarsenbaeva Amangul**  
Qoraqalpoq davlat universiteti

**Annaotatsiya:** Istiqlol yillarida yoshlarning har tafarlama yetuk, barkamol shaxs bólib yetishishlari uchun mustahkam huquqiy baza yaratildi. Hususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bólib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

**Kalit so‘zlar:** barkamol shaxs, strategik yonalishlar, Innovatsion rivojlanish.

### KIRISH:

«Bugingi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangidan yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni oldin kórimagan túrli xil yovuz xavf- xatarlarga ham duchor etmoqda...Farzandlarimizni birovlarining qóliga berib qóymasdan, ularni ózlarimiz tarbiya qilmo’gimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan kóproq suhbatlashishimiz, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muommolarini yechish uchun amaliy yordam berishimiz kerak», [4]. - degan edi Ózbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.

Istiqlol yillarida yoshlarning har tafarlama yetuk, barkamol shaxs bólib yetishishlari uchun mustahkam huquqiy baza yaratildi. Hususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bólib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq yani 1991-yil 20-noyabrda “Ózbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to’g’risida”gi Qonunning qabul qilinishi bilan mamlakatimizda yoshlarga e’tibor masalasi davlat siyosati darajasiga kótarilgan edi. Bu qonun bosh islohatchi bólgan davlatning yoshlar masalasiga bo’g’liq asosiy strategik yonalishlardagi faoliyatini boshqichma bosqich va sistemali shaklda amalga oshirilishiga imkoniyat yaratib berdi. Unda faqatgina yoshlar bóyicha davlat siyosatining maqsad va prinsiplari berilib qóymasdan, bugungi kun kóz-qarashidan ular bilan bo’g’liq júdá prinsiplial masalalar ham joy olgan. Qonunda birinchi marta yoshlar hayotiga bo’g’liq siyosat ham da dasturlarni ishlab chiqarish, amalga oshirishda yoshlarimizning to’g’ridan to’g’ri qatnashishi asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.



2016- yil 16-sentyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi Ózbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi 4 bob, 33 moddadan iborat Qonun [1]. ham yoshlarimizning manfaatlarini táminlashda beqiyos darajda xizmat qildi. Ayniqsa mámlakatimizning tálim, madaniyat va sport sohasidagi yoshlar siyosatida bir qator imkoniyatlar yaratildi va mana shu yaratilgan sharoitlar asnosida tarixiy yutuqlarga ham erishildi.

Ótgan vaqt mobaynida yoshlarni har tomanlama qóllab quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, intellektual salohiyati yuqori, zamon bilan hamnafas, óz yónalishi bóyicha kerakli bólgan kadr yoshlarni tarbiyalash bóyicha alohida tizim yaratildi.

Ózbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlari, Ózbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tashkil qilindi.

Rivojlanayotgan davr kóz qarashidan yoshlarga oid muommolarni atroflicha órganish, samarali yechim ishlab chiqish, shuningdek 2020 yil dekabr oyida yuqori darajada tashkil qilingan Yoshlar forumida va albatta Ózbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29- dekabrda Oliy Majlisga va xalqimizga Murojatnomasida qayd etilgan yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish bóyicha alohida chora tadbirlar ishlab vazifasi qóyildi va aniq belgilangan maqsadlar asosida 2021yil 18-yanvarda Ózbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ózbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosatini 2025- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» Qarori [2] qabul qilindi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Ózbekiston yoshlari forumida tákidlab ótganidek, “Biz yurtimizda qanday islohotlarga qól urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-ğayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun óz oldimizga ulkan marralar qóyganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha tálim, maktab va oliy tálimni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bólgusi Renessansning eng muhim bo‘g‘inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qóshadilar” [3].

Yuqorida takidlangan konsepsiyaning asosiy vazifalari qatorida:

- Yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy bazani takomillashtirish;
- Tálimning barcha bosqichlarida yoshlarning sifatli tálim olishini táminlash, hududlarda inklyuziv tálim rivojlanishi uchun shart- sharoit yaratish;
- Yoshlarga munosib mehnat sharoitlarini yaratish va ularning mehnatga oid qonuniy huquqlarini himoya qilish orqali ularning iqtisodiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirish; kabi bandlarni alohida takidlab ótish kerak.

Bundan tashqari, yoshlarning tálim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bólishi, bandligi uchun shart- sharoitlar yaratish- davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida óz aksini topdi. Davlat shu orqali juda muhim bólgan majburiyatlarni óz zimmasiga olmoqda.

Davlatning qudratini belgilaydigan qator omillardan biri, shubhasiz, mánan yetuk, jismonan so‘g‘lom, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Hukumatimiz tarafidan amalga oshirilayotgan keng kólamli islohatlar allaqachon óz mevasini berishni boshladi va bu kabi qóllab quvvatlashlar soyasida yoshlarimiz albatta yuksak marralarni zabt etishi shubhasizdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. 2016 yil 14 sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonun /



- <https://lex.uz/docs/3026246>
2. 2021yil 18-yanvardagi «Ózbekistonda Yoshlarga oid davlar siyosatini 2025- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» Qaror <http://lex.uz/docs/-5234746>
  3. Ózbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Ózbekiston yoshlari forumidagi máruzasi // [https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-ozbekiston-yoshlari-forumida-sozlagan-nutqi\\_197662](https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-ozbekiston-yoshlari-forumida-sozlagan-nutqi_197662)
  4. <https://www.gazeta.uz/politics/>

